

BOLAJAK O'QITUVCHILARNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Bazarbayeva Aynura Raximnazarovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI "Pedagogika nazariyasi va tarixi"
ixtisosligi 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19488261>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, uning tarkibiy tuzilmasi va shakllantirish texnologiyalari kompleks tarzda tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, kommunikativ va emotsional-intellektual ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-pedagogik kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, ijtimoiylashuv, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'qituvchilarning ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga moslashuvini ta'minlovchi muhim subyekt sifatida qaralmoqda. Shu bois, bolajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish pedagogik ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur kompetensiya o'qituvchining ijtimoiy muhitni anglash, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Zamonaviy pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik asoslardan biri sifatida e'tirof etilib, u ta'lim natijalarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning nazariy-metodologik asoslari ijtimoiy-pedagogik kompetentlik shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va uni pedagogik faoliyatda qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Bu tushuncha psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan kompleks kategoriya hisoblanadi. Mazkur kompetentlik quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat. Kommunikativ komponent verbal va noverbal muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy-perseptiv komponent boshqalarni idrok etish va tushunish, emotsional komponent emotsiyalarni boshqarish va empatiya, faoliyat komponenti ijtimoiy muammolarni hal etish qobiliyati, refleksiv komponent — o'z faoliyatini baholash va tahlil qilishlari shu jumladandir.

Ilmiy tadqiqotlar (G.M. Andreeva, I.A. Zimnyaya) shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kompetentlikning rivojlanishi bevosita shaxsning kommunikativ tajribasi va ijtimoiy faoliyat darajasi bilan bog'liq. Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarining ilmiy asoslari-mazkur kompetensiyani rivojlantirishda konstruktivistik, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kommunikativ trening texnologiyalari treninglar ijtimoiy kompetensiyaning asosiy elementi bo'lgan muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Bu texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: rolli o'yinlar (role-play), guruhviy muhokamalar, psixologik trening mashg'ulotlari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, trening asosida o'qitish talabalarning kommunikativ faolligini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy loyihalash texnologiyasi- loyihaviy faoliyat ijtimoiy tajribani shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar real ijtimoiy muammolarni hal etishga jalb qilinadi. Masalan maktablarda ijtimoiy tadbirlar tashkil etish, volontyorlik faoliyatida ishtirok etish, ijtimoiy muammolar bo'yicha mini-loyihalar ishlab chiqish. Bu yondashuv orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi.

Muammoli-vaziyatli o'qitish texnologiyas- mazkur texnologiya talabalarni real pedagogik vaziyatlarga yaqin sharoitda fikrlashga undaydi. Bu jarayonda muammoli vaziyat yaratiladi, muammoning sabablari aniqlanadi, yechim variantlari ishlab chiqiladi. Natijada talabalar ijtimoiy qaror qabul qilish ko'nikmasini egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik- ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi onlayn kommunikatsiya madaniyati shakllanadi, global ijtimoiy muhit bilan tanishish imkoniyati yaratiladi, media savodxonlik rivojlanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar media savodxonlikni ijtimoiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida baholaydi. Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik shartlari- mazkur jarayon samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq ijobiy psixologik muhit yaratish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, reflektiv faoliyatni tashkil etish, individual yondashuvni qo'llash. Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlashda ularning hissiy holatini to'g'ri anglay olishi zarur. Amaliyotdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari quyidagi muammolar kuzatiladi nazariy bilimlarning ustunligi, amaliy mashg'ulotlarning yetarli emasligi, ijtimoiy tajriba yetishmasligi. Ularni bartaraf etish uchun: amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish, trening va seminarlar sonini oshirish, ta'lim va ijtimoiy muhit integratsiyasini ta'minlash zarur

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning ta'lim sifatiga ta'siri- mazkur kompetensiya rivojlangan pedagog samarali muloqot o'rnatadi, nizolarni konstruktiv hal etadi, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Natijada ta'lim sifati va tarbiyaviy jarayon samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, bolajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biridir. Ushbu kompetensiya pedagogning kasbiy muvaffaqiyati, ta'lim sifati va o'quvchilarning ijtimoiylashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'qituvchining ijtimoiy roli tobora ortib bormoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'qituvchi va murabbiylar — yangi jamiyatni barpo etuvchi asosiy kuchdir". Ushbu fikr pedagog shaxsining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyos ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi, ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi, barkamol avlod tarbiyasi kuchayadi. Kelajakda pedagogik ta'lim tizimi aynan ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – T, 2021.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi*

3. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya*
4. Khutorskoy A.V. *Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii*
5. Internet manbalari (Google Scholar, ResearchGate)
6. Saparbaev T. “Pedagogikaniń pragmatik aspektleri ” Nókis “ PRINT DARHAN” 2025.
7. Saparbaev T. Psixologiya teoriyası hám tariyxı (psixologiya teoriyası); Oqıw qollanba/ -T: “Yosh avlod matbaa”, 2025.-152b.
8. Qosnazarov.Q,Pazılov.A, Tilegenov.A «Pedagogika» Nókis:«Bilim» baspasi 2009.
9. Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. T.:«O`qituvchi», 1996 .